



YAGONA VATAN, YAGONA XALQ BO‘LIB, YANGI HAYOT VA KELAJAK YARATAMIZ!

2020-yil 25-yanvardan chiqa boshlagan

YANGI O‘ZBEKISTON

Ijtimoiy-siyosiy gazeta

№ 164 (1763), 2026-yil 14-avgust, juma



www.yuz.uz



yuz.uznews



yuz_official



yuz.uz_news



yuz.uz_news



TADBIRKORLAR BILAN OCHIQ MULOQOTGA TAYYORGARLIKNING BORISHI KO‘RIB CHIQILDI

13-avgust kuni Prezident Shavkat Mirziyoyevga tadbirkorlar bilan navbatdagi ochiq muloqotga tayyorgarlikning borishi yuzasidan axborot berildi.

Mamlakatimizda an‘anaga aylangan ushbu muloqot tadbirkorlarni o‘ylanitayotgan dolzarb masalalarni bevosita o‘rganish, ularga amaliy yechim topish va ishbilarmonlik muhitini yanada yaxshilashda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Bo‘ljak oltinchi ochiq muloqotga puxta tayyorgarlik ko‘rish maqsadida 15-maydan boshlab 50 dan ortiq vazirlik va idora vakillaridan iborat respublika shtabi tashkil etilgan. Shtab 24/7 rejimda uzluksiz faoliyat yuritmoqda.

Koll-markaz va rasmiy botlar orqali tadbirkorlardan 6 mingga yaqin murojaat kelib tushgan. Ularning 4,2 mingdan ziyodi ijobiy hal etildi, 1,8 mingga yaqinini ko‘rib chiqish davom etmoqda.

Tayyorgarlik doirasida mas‘ul tashkilotlar tomonidan 750 dan ziyod uchrashuv o‘tkazilib, ularda 8,8 mingdan ortiq tadbirkor ishtirok etdi va 3,5 mingdan ziyod taklif hamda masalalar bildirildi.

Biznes-ombudsman va Savdo-sanoat palatasi tomonidan tashkil etilgan 130 dan ortiq uchrashuvda esa 5,7 mingdan ziyod tadbirkor qatnashib, 1,5 mingga yaqin masalani o‘rtaga tashladi. Aniqlangan muammolarni tubdan hal qilish va amaldagi qonunchilikni takomillashtirish bo‘yicha tegishli vazirlik va idoralar bilan birgalikda takliflar ishlab chiqilmoqda.

Shu bilan birga, respublika bo‘yicha 5 ming 72 nafar tadbirkor o‘rtasida so‘rovnoma o‘tkazildi. U orqali korxonalar samaradorligi, investitsiya va infratuzilma ta‘minoti, soliq ma‘murchiligi, tashqi savdo hamda sud-huquq sohasidagi masalalar o‘rganildi.

So‘rov ishtirokchilarining 93 foizini mahalliy xususiy korxonalar tashkil etdi. Unda savdo, xizmat ko‘rsatish, sanoat, qurilish va qishloq xo‘jaligi sohalari qamrab olindi.

Tahlillar korxonalarda mehnat unumdorligini oshirish va tannarxni pasaytirish bo‘yicha hali katta imkoniyatlar borligini ko‘rsatdi. Raqamli platformalar, sun‘iy intellekt, energiya tejankor texnologiyalar, yangi mahsulot va ishlab chiqarish usullarini joriy etgan korxonalarda sotuv, raqobatbardoshlik, ish haqi va investitsiya ko‘rsatkichlari yuqori bo‘lmoqda. Xususan, kamida uchta samaradorlik chorasini joriy etgan korxonalarda tannarxni pasaytirish ehtimoli 4,1 barobar, ish haqini yuqori sur‘atda oshirish imkoniyati 2,1 barobar ko‘p. Biroq bunday choralarni uch va undan ortiq yo‘nalishda qo‘layotgan korxonalar ulushi atigi 11,6 foizni tashkil etgan. 28,5 foiz korxona esa bu borada birovta ham chora ko‘rmagan.

Korxonalarining 51 foizida so‘nggi davrda yangi mahsulot, xizmat yoki innovatsiya joriy etilmagan, modernizatsiya ishlari amalga oshirilmagan. 40 foiz korxona oxirgi bir yilda umuman investitsiya kiritmagan, 29 foizida kelgusi bir yil uchun ham bunday reja mavjud emas. Kredit foizlarining yuqoriligi, garovni past baholash, hujjatlarning ko‘pligi va kredit rasmiylashtirish muddatlarining uzoqligi asosiy to‘siqlar sifatida ko‘rsatilgan.

So‘rov natijalariga ko‘ra, korxonalarining 38 foizi tannarxni pasaytirish choralarini ko‘rmagan. 53 foizida mahsulot va xizmatlar tannarxi oshgan. Bunga asosan xomashyo narxi, energiya va logistika xarajatlarning ko‘payishi sabab bo‘lmoqda. Shuningdek, 43 foiz korxona energiya tejash choralarini ko‘rmagan, 49 foizi qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanmaydi.

Infratuzilma ta‘minoti ham tadbirkorlarni qiyinayotgan asosiy masalalardan biri bo‘lib qolmoqda. So‘rovnomada tadbirkorlar tez-tez uzilishlar, kuchlanish va bosimning pastligi, limit hamda tariflar bilan bog‘liq masalalarni qayd etgan.

So‘rov ishtirokchilari soliq ma‘murchiligi bo‘yicha muhim islohotlar amalga oshirilganini e‘tirof etgan holda, tekshiruvlar o‘tkazish va qo‘shilgan qiymat solig‘ini qaytarish bilan bog‘liq jarayonlarda mavjud muammolarni ko‘rsatib o‘tgan. Shu bilan birga, tadbirkorlarning 94 foizi barqarorlik reytingi amaliyotining ular faoliyatiga ta‘sirini yuqori baholagan.

So‘rovda qatnashgan korxonalarining 22,3 foizi tashqi savdo bilan shug‘ullanadi. Xorijlik mijoz topish, mahsulotni sertifikatlash, logistika, moliyaviy vositalar, bojxona jarayonlari, bozor haqida ma‘lumot va marketing ko‘nikmalarining yetishmasligi eksportdagi asosiy to‘siqlar sifatida ko‘rsatilgan.

Sud-huquq sohasida malakali yuridik yordam olish imkoniyati va davlat xaridlari shaffofligi ijobiy baholangan. Ayni paytda tadbirkorlarning 73 foizi majburiy ijrodagi byurokratik jarayonlar biznesga salbiy ta‘sir ko‘rsatayotganini bildirgan.

Davlatimiz rahbari kelib tushgan murojaatlar va so‘rov natijalarini hududlar hamda sohalar kesimida chuqur tahlil qilib, tadbirkorlik rivojiga to‘sqinlik qilayotgan tizimli muammolar bo‘yicha aniq yechimlar ishlab chiqish zarurligini ta‘kidladi.

Korxonalar samaradorligini oshirish, innovatsiya va energiya tejankor texnologiyalarni keng joriy etish, kredit va infratuzilma masalalarini hal qilish, soliq ma‘murchiligini takomillashtirish, eksportchilarni qo‘llab-quvvatlash hamda tadbirkorlarning huquqiy himoyasini kuchaytirish yuzasidan takliflar tayyorlash topshirildi.

Ochiq muloqotda ko‘tariladigan har bir masala bo‘yicha aniq yechim, uni amalga oshirish mexanizmi, mas‘ullar va muddatlarni belgilash vazifasi qo‘yildi.

O‘ZA

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining
F A R M O N I

TADBIRKORLAR KUNI MUNOSABATI BILAN SOHA VAKILLARIDAN BIR GURUHINI MUKOFOTLASH TO‘G‘RISIDA

Yangi O‘zbekistonda tadbirkorlikni har tomonlama rivojlantirish, ishbilarmonlik muhitini yaxshilash borasida yaratilgan imkoniyatlardan unumli foydalanib, mamlakatimiz taraqqiyoti va eksport salohiyatini yuksaltirish, milliy iqtisodiyotimizning barqaror o‘shishini ta‘minlash bo‘yicha salmoqli natijalarga erishib kelayotgani, o‘zining tashabbuskorligi, bilim va tajribasini namoyon etib, investitsiyalarni jalb qilish, import o‘rini bosadigan mahsulotlar ishlab chiqarish, zamonaviy xizmatlar ko‘lamini yanada kengaytirish, yangi ish o‘rinlari va daromad manbalarini yaratish orqali aholi farovonligini oshirish yo‘lida alohida jonbozlik ko‘rsatayotgani, shuningdek, ijtimoiy hayotdagi faol ishtiroki uchun quyidagilar mukofotlansin:

“O‘zbekiston Respublikasida xizmat ko‘rsatgan tadbirkor” faxriy unvoni bilan

Boltayev Odiljon Olimjonovich — Samarqand shahridagi “Azia metall prof” mas‘uliyati cheklangan jamiyatining rivojlantirish va investitsiya masalalari bo‘yicha direktori, Samarqand viloyati

“O‘zbekiston Respublikasida xizmat ko‘rsatgan sanoat xodimi” faxriy unvoni bilan

Xamrayev Baxtiyor Djabbarovich — Navoiy shahridagi “Gidro stanko servis”

mas‘uliyati cheklangan jamiyati direktori, Navoiy viloyati

“O‘zbekiston Respublikasida xizmat ko‘rsatgan quruvchi” faxriy unvoni bilan

Isakov Muhsinjon Qosimjonovich — Marg‘ilon shahridagi “426-xo‘jaliklararo ixtisoslashgan ko‘chma mexanizmlar kolonnasi” mas‘uliyati cheklangan jamiyati bosh direktori, Farg‘ona viloyati
Babaxanov Yorqin Xaitmuradovich — Bo‘stonliq tumanidagi “Central Asian constriction” mas‘uliyati cheklangan jamiyati ta‘sischisi, Toshkent viloyati

Davomi 2-betda

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining
F A R M O Y I S H I

“FAOL TADBIRKOR” KO‘KRAK NISHONI BILAN TAQDIRLASH TO‘G‘RISIDA

Milliy iqtisodiyotimizni barqaror rivojlantirish, yurtimizda ishbilarmonlik muhitini yanada yaxshilash, Yangi O‘zbekistonda tadbirkorlik sohasida ilg‘or tajriba va an‘analar maktabini yaratish borasida alohida ibrat va namuna ko‘rsatib kelayotgani, o‘zining izlanuvchanligi, kreativ g‘oya va tashabbuslari bilan samarali faoliyat olib borib, mamlakatimizning ishlab chiqarish va eksport salohiyatini oshirish, sohaga innovation texnologiyalarni joriy etish, aholi bandligi va farovonligini ta‘minlashga munosib hissa qo‘shayotgani, biznesda erishayotgan salmoqli natijalari hamda ijtimoiy hayotdagi faol ishtiroki uchun quyidagilar **“Faol tadbirkor” ko‘krak nishoni** bilan taqdirlansin:

Beginnova Salima Rajatdinovna — Bo‘zatov tumanidagi shaxsiy tomorqa yer egasi, Qoraqalpog‘iston Respublikasi

Ilyasova Elvira Askarbayevna — “Hunarmand” uyushmasining Qo‘ng‘irot tumani bo‘limi boshlig‘i, Qoraqalpog‘iston Respublikasi

Kalnazarov Baxadur Ibanovich — Qo‘ng‘irot tumanidagi “Ustyurt sodium sulfate” mas‘uliyati cheklangan jamiyati direktori, Qoraqalpog‘iston Respublikasi

Masharipov Azat Bazarbayevich — Beruniy tumanidagi “Usta Bozorboy” xususiy korxonasi ta‘sischisi, Qoraqalpog‘iston Respublikasi

Mustafayev Azat Yesbosinovich — Taxiatosh tumanidagi “Atiyaj gulzar” mas‘uliyati cheklangan jamiyati rahbari, Qoraqalpog‘iston Respublikasi

Saburov Dilshod Kabuljanovich — To‘rtko‘l tumanidagi “Baraka tekstil group” mas‘uliyati cheklangan jamiyati rahbari, Qoraqalpog‘iston Respublikasi

Shimbergenov Azat Adilbayevich — Nukus shahridagi “Nukus evro stroy”

mas‘uliyati cheklangan jamiyati rahbari, Qoraqalpog‘iston Respublikasi
Dusmuratov Mirzadiyor Mirzagayratovich — Andijon tumanidagi “Makon Mirzo” mas‘uliyati cheklangan jamiyati rahbari, Andijon viloyati

Raximov Yunusjon Nematovich — Baliqchi tumanidagi “Sokin savdo servis” mas‘uliyati cheklangan jamiyati ta‘sischisi, Andijon viloyati

Raxmatova Buzaynab Mirsaitovna — Oltinko‘l tumanidagi “Pergament Snegurochka” mas‘uliyati cheklangan jamiyati ta‘sischisi, Andijon viloyati
Sayfutdinova Shaxnoza Alisher qizi — Marhamat tumanidagi “XXI asr akademiyasi” nodavlat ta‘lim muassasasi rahbari, Andijon viloyati

Tursunov Jomoldin Ostanakulovich — Xo‘jaobod tumanidagi “Everest MMM” mas‘uliyati cheklangan jamiyati ta‘sischisi, Andijon viloyati

Davomi 2-betda

HUDUDLARDA YOQILG‘I-ENERGETIKA SOHASIDAGI ISHLARNI TIZIMLI TASHKIL ETISH VAZIFALARI BELGILANDI

Prezident Shavkat Mirziyoyevga “Yangiyo‘l tajribasi” asosida hududlarda iste‘molchilarni yoqilg‘i-energetika resurslari bilan barqaror ta‘minlash, energiya samaradorligini oshirish, tarmoqlardagi yo‘qotishlar va debitorlik qarzdorlikni keskin kamaytirish bo‘yicha amalga oshirilgan ishlar yuzasidan axborot berildi.

Avvalroq ushbu tajriba asosida har bir hududdan bittadan tanlab olingan 14 ta tumanda namunaviy tizim yaratish vazifasi qo‘yilgan edi. Shu maqsadda ishlar “mahallabay” tashkil etilib, energetika sohasidagi muammolarni joyiga chiqqan holda o‘rganish va manzilli choralar ko‘rish yo‘lga qo‘yildi.

Bu 916 ta mahalla, 832 mingta xonadon, 49 mingta tadbirkorlik subyekti va 2,2 mingdan ortiq ijtimoiy soha obyekti qamrab oldi. Har bir mahalla bo‘yicha energetik pasport va energiya resurslariga talab balansi shakllantirildi.

Natijada ilk bor mahallalar kesimida mavjud talab va imkoniyat o‘rtasidagi tafovut aniq hisob-kitob qilindi. Jumladan, 265 ta mahallada 60 megavatt elektr quvvati, 42 ta mahallada esa yiliga 47 million kub metr tabiiy gaz taqchilligi borligi aniqlandi. Ayni paytda 207 ta mahallada quvvat zaxirasi mavjud.

Bunday yondashuv kelgusida energiya resurslariga bo‘lgan talabni oldindan hisoblash va zarur infratuzilmani o‘z vaqtida tayyorlash imkonini beradi.

Shu asosda elektr va gaz tarmoqlarini yangilash ishlari jadallashirildi. 14 ta tumanda 5 ming 695 ta transformator, 6,9 ming kilometr elektr tarmog‘i, 242 kilometr gaz tarmog‘i hamda 404 ta gaz taqsimlash

qurilmasi ta‘mirlab ekani aniqlandi. Ularning texnik holatini yaxshilab, “yashil” toifaga o‘tkazish ishlari boshlandi.

Hozirga qadar 441 ta transformator, 1 ming 134 kilometr elektr va 88 kilometr gaz tarmog‘i, shuningdek, 92 ta gaz taqsimlash qurilmasi ta‘mirlandi.

Avvalgi yillarda investitsiya dasturlari doirasida boshlangan, biroq yakuniga yetkazilmagan obyektlarning bir qismi ham foydalanishga topshirildi.

Hisob-kitoblarga ko‘ra, kelgusi besh yilda mazkur tumanlarda energiya resurslariga talab 49 foizga oshishi kutilmoqda. Shu bois, istiqbolida ishga tushiriladigan loyihalarni hisobga olgan holda aholi va tadbirkorlarni energiya resurslari bilan ishonchli hamda barqaror ta‘minlashga qaratilgan besh yillik dastur ishlab chiqildi.

Unda 721 ta mahallada 2 ming 261 ta transformator va 7 ming 449 kilometr elektr tarmog‘i, 200 ta mahallada esa 313 ta gaz taqsimlash qurilmasi va 327 kilometr gaz tarmog‘ini yangilash belgilandi.

Bu ishlar natijasida hududlarda qo‘shimcha 1 ming 300 megavatt o‘tkazuvchanlik quvvati yaratilishi ko‘zda tutilgan.

Ijtimoiy soha obyektlaridagi energiya iste‘moli ham o‘rganildi. Jami 1 ming 938 ta obyektning energiya sarfi tahlil qilindi, samaradorligi past bo‘lgan 226 tasi “qizil”

toifaga kiritildi. Ularni energiya samarador tizimga o‘tkazish bo‘yicha dastur ishlab chiqilib, amaliy ishlar boshlandi.

Ushbu chora-tadbirlar natijasida yiliga 4,3 million kilovatt-soat elektr energiyasi va 2,1 million kub metr tabiiy gazni tejash imkoniyati yaratiladi.

Davlatimiz rahbari 14 ta tumanda qo‘llangan mazkur yondashuv bilan cheklanib qolmasdan, uni respublikaning barcha tumanlarida joriy etish zarurligini ta‘kidladi.

Barcha hududlarda ishlarni “mahallabay” tashkil etish, energetik pasportlar va energiya iste‘moli balansini shakllantirish, tarmoqlarning holatini manzilli o‘rganish hamda aniqlangan muammolarni bosqichma-bosqich bartaraf etish bo‘yicha mutasaddilarga topshiriqlar berildi.

Maqsad – energetika sohasida “muammo paydo bo‘lgandan keyin uni bartaraf etish” amaliyotidan “muammoni oldindan aniqlash, zarur choralarni rejalashtirish va uning oldini olish” tizimiga o‘tish.

Yig‘ilishda Samarqand viloyati hududiy elektr tarmoqlari boshqaruvini xorijiy investorlarga berish hamda “Surxon — Pulixumri” yuqori kuchlanishli tarmog‘ini barpo etish loyihalarini jadallashtirish masalalari ham ko‘rib chiqildi.

O‘ZA

ISLOHOTLAR BAHOSI

ODAMLAR HAYOTIDAN YO‘QOTILGAN MASHAQQATLAR BILAN O‘LCHANADI



Prezidentimiz 2021-yilda “Bugungi O‘zbekiston – bu hali tom ma‘nodagi, biz orzu qilayotgan, intilayotgan yangi O‘zbekiston emas”, degan edi. Bu iqrar islohotni tayyor g‘alaba sifatida ko‘rsatishdan ko‘ra mas‘uliyatliroq. Chunki mavjud kamchilikni tan olmagani davlat uni tuzatish uchun ham chora izlamaydi.

“Dada, yo‘ldan yuraylik...”

Bu gal biz nazarda tutayotgan “yo‘l” so‘zi shunchaki metafora emas. Gap mamlakatning qishloq yo‘llaridan tortib xalqaro avtomagistraligacha, temir yo‘llaridan metrogacha, havo qo‘nalg‘asidan tranzit yo‘lagigacha bo‘lgan harakat tizimi haqida boradi. Aniqliq, Shavkat Mirziyoyev O‘zbekiston transport tafakkuriga olib kirgan eng muhim yangilik — yo‘lni alohida qurilish obyekti emas, inson, iqtisodiyot va davlatni harakatga keltiradigan yaxlit tizim sifatida ko‘ra boshlagani haqida.

Tug‘ilib o‘sgan qishlog‘im — Bolg‘alidan o‘tadigan Forish—Chelak tosh yo‘li, yangilishmasan, 1983 yoki 1985-yillarda asfaltlangan edi.

El yo‘l qurganni yaxshi ko‘radi. O‘sha yo‘lni bunyod etgan yo‘lsozlar rosa yayragan: kimnikidadir tushlik tayyor, kimnikida kechki ovqat. Nonushtalari ham bolsiz, qaymoqsiz bo‘lmagan bo‘lsa kerak ularning...

O‘sha yo‘ldan 1995-yillargacha maza qilib yurdik. Keyin 2024-yilgacha — qariyb o‘ttiz yil — o‘sha “maza”ning tovonini to‘ladik.

“Yo‘l azobi — go‘r azobi”, degan gapni har bir bolg‘alilik, har bir garashalik, har bir narvonlik, qo‘yingki, bu qishloqlarni bir hududga birlashtirgan Qoraabdolda yashagan har bir sho‘rlik o‘z tanasida his qildi.

Davomi 3-betda

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining
F A R M O N I

TADBIRKORLAR KUNI MUNOSABATI BILAN SOHA VAKILLARIDAN BIR GURUHINI MUKOFOTLASH TO‘G‘RISIDA

Boshlanishi 1-betda

“O‘zbekiston Respublikasida xizmat ko‘rsatgan qishloq xo‘jaligi xodimi” faxriy unvoni bilan

Axmədov Baxtiyor Ergashevich — Baxmal tumanidagi “Qo‘shchinor mevasi” fermer xo‘jaligi boshlig‘i, Jizzax viloyati

“Fidokorona xizmatlari uchun” ordeni bilan

Kazimov Botir Xaydarovich — Toyloq tumanidagi “Bog‘izog‘on” mas‘uliyati cheklangan jamiyati direktori, Samarqand viloyati

Umirkazov Shunkar Umarovich — Ohangaron tumanidagi “Sarvar Aziz Umarzoda ramzi” fermer xo‘jaligi boshlig‘i, Toshkent viloyati

Sharipov Umarbek Kuranbayevich — Urganch tumanidagi “Tillo domor” xususiy korxonasi rahbari, Xorazm viloyati

“Mehnat shuhrati” ordeni bilan

Axmədov Qodirjon Maxmudovich — O‘zbekiston tumanidagi “Turon eco cement group” mas‘uliyati cheklangan jamiyati ta‘sischisi, Farg‘ona viloyati

Masharipov Otaxon Karimberganovich — Xiva tumanidagi “Chinobod qurilish” xususiy korxonasi direktori, Xorazm viloyati

Saynurdinov Saidgaffar Muxitdinovich — Ohangaron shahridagi “Premier electrotech” mas‘uliyati cheklangan jamiyati ta‘sischisi, Toshkent viloyati

Uraimov Isroiljon Xakimovich — Xo‘jaobod tumanidagi “Al-Hakim” xususiy korxonasi rahbari, Andijon viloyati

“Do‘stlik” ordeni bilan

Abduraxmanov Abdulaziz Abdukadirovich — “My freighter” va “Centrum air” xususiy aviakompaniyalari ta‘sischisi, Toshkent shahri

Babitsa Rastislav — “AZC group” kompaniyasining Markaziy Osiyo bo‘yicha ijrochi direktori

Ganiyev Boisxon Basitovich — Shayxontohur tumanidagi “United soft” mas‘uliyati cheklangan jamiyati rahbari, Toshkent shahri

Ismatullayev Jamshid Xayrullayevich — Chust tumanidagi “Shust textile” mas‘uliyati cheklangan jamiyati ta‘sischisi, Namangan viloyati

Klain Robert — “Voltalia” kompaniyasi boshqaruvi raisi
Kodirov Bexzod Normamatovich — Boysun tumanidagi “Narzi qushbegi” xususiy korxonasi rahbari, Surxondaryo viloyati

Mamatqulov Oybek Axmədovich — Zomin tumanidagi “Azim Zomin shifo” mas‘uliyati cheklangan jamiyati direktori, Jizzax viloyati

Matkarimova Xanifa Sapayevna — Bog‘ot tumanidagi “Dilshoda Dilshodbek Manzura” fermer xo‘jaligi boshlig‘i, Xorazm viloyati

Mirzajonov Shermuxammad Kozimovich — Yangiyo‘l tumanidagi “Imperial granit” mas‘uliyati cheklangan jamiyati ta‘sischisi, Toshkent viloyati

Turumov Xolmirza Almaxmatovich — Yakkabog‘ tumanidagi “Oqtosh kelajagi” mas‘uliyati cheklangan jamiyati rahbari, Qashqadaryo viloyati

O‘ral O‘zkan — “Odas Energi CA” kompaniyasi rahbari
Umanov A‘zam Anvarovich — To‘raqo‘rg‘on tumanidagi “Namangan qo‘ychilik klasteri” mas‘uliyati cheklangan jamiyati ta‘sischisi, Namangan viloyati

Xamidov Adaxamjan Abduraimovich — “Forteks” kompaniyasi rahbari

Xujamov Botir Mamadaliyevich — Baliqchi tumanidagi “Chinobod nurl zamin agrofirma” mas‘uliyati cheklangan jamiyati direktori, Andijon viloyati

Yuldashev Ikram Yalgashevich — Nukus shahridagi “Karakalpak palace hotel” mas‘uliyati cheklangan jamiyati boshqaruvi raisi, Qoraqalpog‘iston Respublikasi

“Mardlik” ordeni bilan

Jumaniyozova Roxat Ishimovna — Tuproqqal‘a tumanidagi “Marjona Saboxon” mas‘uliyati cheklangan jamiyati rahbari, Xorazm viloyati

Qo‘shshayev Afzal Axmədovich — Shofirkon tumanidagi “Jilvon jilosi 2020” mas‘uliyati cheklangan jamiyati rahbari, Buxoro viloyati

Maxkamov Otabek Erkinovich — Ijtimoiy tarmoqlardagi “MrOtabekTV” sahifasi asoschisi, blogger

Musayev Muzaffarxon Obosxonovich — Kichik biznes uyushmasi raisi o‘rinbosari

Urunboyev Ma‘ruf Husan o‘g‘li — Narpay tumanidagi “Narpay strategy up” mas‘uliyati cheklangan jamiyati direktori, Samarqand viloyati

II darajali “Salomatlik” ordeni bilan

Nazarova Xadicha Abdullayevna — “Salomatlik plyus ekologiya” nodavlat notijorat tashkiloti boshqaruv kengashi raisi, Farg‘ona viloyati

Raximiy Sharif Uktamovich — Urganch shahridagi “Surge med” xususiy klinikasi bosh shifokori, Xorazm viloyati

“Sog‘lom turmush” medali bilan

Ataboyev Xusan Karimovich — Sergeli tumanidagi “Atabaevs production” mas‘uliyati cheklangan jamiyati ta‘sischisi, Toshkent shahri

Baratov Shoislom Abdug‘ani o‘g‘li — Guliston shahridagi “Ideal study” nodavlat ta‘lim muassasasi rahbari, Sirdaryo viloyati

Kenjayev Anvar Olimovich — Buxoro shahridagi “Amirshoh 777” mas‘uliyati cheklangan jamiyati rahbari, Buxoro viloyati

“Jasorat” medali bilan

Qurbonov Asror Shomurotovich — Nishon tumanidagi shaxsiy tomoqqa yer egasi, Qashqadaryo viloyati

Qurbonov Furkat Farhod o‘g‘li — Termiz shahridagi yakka tartibdagi tadbirkor, novvoy, Surxondaryo viloyati

Ochilova Zulfiya To‘rayevna — Peshku tumanidagi “Zulfiya To‘ra qizi” fermer xo‘jaligi boshlig‘i, Buxoro viloyati

“Kelajak bunyodkori” medali bilan

Bahodirov Shohrux Baxtiyorovich — Shahrisabz shahridagi “Lazzat pishloq” mas‘uliyati cheklangan jamiyati ta‘sischisi, Qashqadaryo viloyati

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining
F A R M O Y I S H I

“FAOL TADBIRKOR” KO‘KRAK NISHONI BILAN TAQDIRLASH TO‘G‘RISIDA

Boshlanishi 1-betda

Umarov Zoxidjon Ziyaidinovich — Qo‘rg‘ontepa tumanidagi “Sog‘lom avlod” mas‘uliyati cheklangan jamiyati rahbari, Andijon viloyati

Amonov Vohidjon Ne‘matullayevich — G‘ijduvon tumanidagi “Demo Clean” mas‘uliyati cheklangan jamiyati rahbari, Buxoro viloyati

Axrorova Shahnoza Botirovna — Buxoro shahridagi “Rangrez Bukhara” xususiy korxonasi rahbari, Buxoro viloyati

Bobokalonov Sanjar Ramazonovich — Vobkent tumanidagi “Shirin ethno house” oilaviy turizm korxonasi rahbari, Buxoro viloyati

Iskandarov G‘ayrat Hasanovich — Qorako‘l tumanidagi “Hasanobod shifo-bol” asalarichilik fermer xo‘jaligi boshlig‘i, Buxoro viloyati

Toiyrov Azizjon Ergashevich — Shofirkon tumanidagi “Family food claster” mas‘uliyati cheklangan jamiyati ta‘sischisi, Buxoro viloyati

Tohirov Bobomurod Bahodirovich — Buxoro shahridagi “Miramax turist trans” mas‘uliyati cheklangan jamiyati direktori, Buxoro viloyati

Abjalov Nuriddin Saatovich — Sharof Rashidov tumanidagi “Paxtakorlik Diyorjon dalasi” fermer xo‘jaligi boshlig‘i, Jizzax viloyati

Buronov Jaxongir Nusratovich — Zarbdor tumanidagi “Miramiller” mas‘uliyati cheklangan jamiyati ta‘sischisi, Jizzax viloyati

Davletiyarov Daniyar Begdullayevich — “ADM Jizzakh” mas‘uliyati cheklangan jamiyati bosh direktori, Jizzax viloyati

Mavlanov Shuxrat Tulkinovich — “Professional assets management” mas‘uliyati cheklangan jamiyati bosh direktori, Jizzax viloyati

Suvanqulov Shohhasan Muhammad o‘g‘li — Paxtakor tumanidagi “Semrug cluster” mas‘uliyati cheklangan jamiyati rahbari, Jizzax viloyati

Sultonov Mirtzoza Hikmatovich — Do‘stlik tumanidagi “Obi Sangzor” mas‘uliyati cheklangan jamiyati rahbari, Jizzax viloyati

Tog‘ayeva Yulduz Abduraimovna — G‘allaorol tumanidagi “New world savdo” oilaviy korxonasi ta‘sischisi, Jizzax viloyati

Yunusov Abdulaziz Abduaxatovich — Jizzax shahridagi “Roison home white goods” mas‘uliyati cheklangan jamiyati ta‘sischisi, Jizzax viloyati

Kudratov Iskandar Nigmatovich — Qarshi shahridagi “Asl yuksalish savdo” mas‘uliyati cheklangan jamiyati ta‘sischisi, Qashqadaryo viloyati

Qobulov Yaxshimurod Xurozovich — Ko‘kdala tumanidagi “Qobulov Xo‘roz Xolboyevich” polizchilik fermer xo‘jaligi boshlig‘i, Qashqadaryo viloyati

Murtazayev Xurshid Rustamovich — Shahrisabz tumanidagi “Shahrisabz bunyodkori” mas‘uliyati cheklangan jamiyati rahbari, Qashqadaryo viloyati

Raxmonova Difuza Tojiddinovna — Qarshi shahridagi Axborot texnologiyalari va menejment universiteti ta‘sischisi, Qashqadaryo viloyati

Sayliyev Jamol Kamolovich — Qarshi tumanidagi “Radiant silk” mas‘uliyati cheklangan jamiyati bosh direktori, Qashqadaryo viloyati

Umirov Sarvar Numonovich — Shahrisabz tumanidagi “Hisor maxsus qurilish invest”

mas‘uliyati cheklangan jamiyati ta‘sischisi, Qashqadaryo viloyati

Xaydarov Otabek Rustamovich — Chiroqchi tumanidagi “Komfort star new” mas‘uliyati cheklangan jamiyati rahbari, Qashqadaryo viloyati

Choriyev Obidjon Barakovich — Ko‘kdala tumanidagi “Bobur” yilqichilik fermer xo‘jaligi boshlig‘i, Qashqadaryo viloyati

Jiyanov Juraboy Nuritdinovich — Navoiy shahridagi “Golden lift” mas‘uliyati cheklangan jamiyati ta‘sischisi, Navoiy viloyati

Temirov Sherzodxuja Ilkomjonovich — Karmana tumanidagi “Metall mahsulot zavodi” mas‘uliyati cheklangan jamiyati ta‘sischisi, Navoiy viloyati

Xaydarov Navroz‘ Qudratovich — Konimex tumanidagi “Navoiy dizayn plyus” mas‘uliyati cheklangan jamiyati rahbari, Navoiy viloyati

Xusainov Firdavs Xafizovich — Navoiy shahridagi “Navoiy montaj avtomatika” mas‘uliyati cheklangan jamiyati rahbari, Navoiy viloyati

Shomiyeva Ulash Shonozarovna — Qiziltepa tumanidagi “Akobir Marjona oruzi” mas‘uliyati cheklangan jamiyati rahbari, Navoiy viloyati

Bekmuratov Nosir Abdimanopovich — Uchqo‘rg‘on tumanidagi “Citrus city” mas‘uliyati cheklangan jamiyati direktori, Namangan viloyati

Mamashayev Baxodir Abduvaxobovich — Davlatobod tumanidagi “Comfort cool system” mas‘uliyati cheklangan jamiyati ta‘sischisi, Namangan viloyati

Nasimova Nigora Musaxanovna — Yangi Namangan tumanidagi “Zarka” mas‘uliyati cheklangan jamiyati rahbari, Namangan viloyati

Nuritdinov Oybek Yusubjonovich — Namangan tumanidagi “Yusuf bahor gullari” mas‘uliyati cheklangan jamiyati rahbari, Namangan viloyati

Rustamova Nasiba Karim qizi — Namangan shahridagi yakka tartibdagi tadbirkor, gul yetishtiruvchi, Namangan viloyati

Sadikov Ruslan Yuryevich — Namangan shahridagi “Grand textile service” mas‘uliyati cheklangan jamiyati rahbari, Namangan viloyati

Axmedjonov Farrux A‘zamovich — Samarqand shahridagi “Renessans dizayn” mas‘uliyati cheklangan jamiyati rahbari, Samarqand viloyati

Begimov Ulugbek Najmovich — Paxtachi tumanidagi “Alisher” xususiy korxonasi direktori, Samarqand viloyati

Gadoyev Begimqul O‘lmasovich — Urgut tumanidagi “Maxmadjon nurafshon” xususiy korxonasi direktori, Samarqand viloyati

Djabborov Jaxongir Djurakulovich — Ogdayro tumanidagi “Sam text plas” mas‘uliyati cheklangan jamiyati ta‘sischisi, Samarqand viloyati

Jalilov Shokirjon Raupovich — Samarqand shahridagi “Mega sezon poyafzal” mas‘uliyati cheklangan jamiyati ta‘sischisi, Samarqand viloyati

Li Yuriy Arkadevich — Samarqand shahridagi “Elxolding” ilmiy-ishlab chiqarish birlashmasi bosh direktori, Samarqand viloyati

Raxmatov Farxod Rasulovich — Samarqand tumanidagi “Gulobod mebel” mas‘uliyati cheklangan jamiyati direktori, Samarqand viloyati

Bosimov Rustam Raxmatulloyevich — Guliston shahridagi “Bosimov Rustam Raxmatulloyevich” mas‘uliyati cheklangan jamiyati ta‘sischisi, Sirdaryo viloyati

Maksudov Bekzod Ulug‘bek o‘g‘li — Mirzo Ulug‘bek tumanidagi “Intest max” mas‘uliyati cheklangan jamiyati ta‘sischisi, Toshkent shahri

Nurmuxamedov Elbek Timurovich — Yashnobod tumanidagi “East-games” mas‘uliyati cheklangan jamiyati ta‘sischisi, Toshkent shahri

Soliyev Muxammadxon Bobirshoyevich — Samarqand shahridagi “Innovation maskan” nodavlat ta‘lim muassasasi direktori, Samarqand viloyati

“Shuhrat” medali bilan

Adamboyev Toxirjon Akbaraliyevich — Sergeli tumanidagi “Barakat-alfa” mas‘uliyati cheklangan jamiyati bosh direktori, Toshkent shahri

Dadaxonov Davron Toxirovich — Yunusobod tumanidagi “Global export company” mas‘uliyati cheklangan jamiyati bosh direktori, Toshkent shahri

Jabbarova Yulduz Xasanovna — Sharof Rashidov tumanidagi “Yu-Meva” mas‘uliyati cheklangan jamiyati rahbari, Jizzax viloyati

Maxmudov Farxod Gayratovich — “Brio group” aksiyadorlik jamiyati bosh direktori, Toshkent shahri

Murtazayev Shoxrux Davronbekovich — Yashnobod tumanidagi “Cinema store” mas‘uliyati cheklangan jamiyati ta‘sischisi, Toshkent shahri

Norboyeva Mohichehra Nusratilloevna — G‘ozg‘on shahridagi “G‘ozg‘on chevar qizlari” ishlab chiqarish kooperativi rahbari, Navoiy viloyati

Obidov Dadaxon Odilovich — Sergeli tumanidagi “Xon films” mas‘uliyati cheklangan jamiyati ta‘sischisi, Toshkent shahri

Olimova Inobat Ravshanovna — Xatirchi tumanidagi “Sultonali Javohir” fermer xo‘jaligi boshlig‘i, Navoiy viloyati

Pan Yevgeniya Leonidovna — Ishtixon tumanidagi “Samarband stone trade corporation” mas‘uliyati cheklangan jamiyati ta‘sischisi, Samarqand viloyati

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti	
Toshkent shahri, 2026-yil 13-avgust	

Pardayev Saloxiddin Saydulloyevich — Termiz shahridagi “Fayzi Mehriniso qurilish” xususiy korxonasi rahbari, Surxondaryo viloyati

Sagdiyev Temur Xayrullayevich — Mirobod tumanidagi “Design studio” mas‘uliyati cheklangan jamiyati ta‘sischisi, Toshkent shahri

Sultanov Mirsaid Salamatdinovich — Nukus shahridagi “Ajiniyaz Qaraqalpai” mas‘uliyati cheklangan jamiyati ta‘sischisi, Qoraqalpog‘iston Respublikasi

Sultonaliyev Boburjon Botirali o‘g‘li — Quvasoy shahridagi “Crown ceramic” mas‘uliyati cheklangan jamiyati direktori, Farg‘ona viloyati

Tulyaganov Gafur Axmadjanovich — “Ahmad oltin jo‘ja” restoranlar tarmog‘i asoschisi, Toshkent shahri

Umirkozov Oybek Tajibayevich — Asaka tumanidagi “Everest metall group” mas‘uliyati cheklangan jamiyati ta‘sischisi, Andijon viloyati

O‘rinov Sherali Boboqulovich — “Fayz” milliy taomlar tarmog‘i asoschisi, Toshkent shahri

Ustadjalilov Dantes Farxodovich — Guliston shahridagi “Dantes construction” mas‘uliyati cheklangan jamiyati ta‘sischisi, Sirdaryo viloyati

Xayrullayev Azim Abdurasulovich — Buxoro tumanidagi “Tekhnochem” mas‘uliyati cheklangan jamiyati ta‘sischisi, Buxoro viloyati

Xamidov Lazizbek Yodgorovich — Mirzo Ulug‘bek tumanidagi “Tasnif group” mas‘uliyati cheklangan jamiyati direktori, Toshkent shahri

Xudoyberdiyeva Ziyodaxon A‘zamjonovna — O‘rta Chirchiq tumanidagi “Ziyotrans” mas‘uliyati cheklangan jamiyati ta‘sischisi, Toshkent viloyati

Choriyeva Gulnora Djurakulovna — Shahrisabz shahridagi “Tikuvchi Anoragul” xususiy korxonasi rahbari, Qashqadaryo viloyati

Yusupov Shuxrat Fazlitdinovich — Sergeli tumanidagi “Makiz baraka” mas‘uliyati cheklangan jamiyati ta‘sischisi, Toshkent shahri

SH. MIRZIYOYEV	

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti	

Alimov Ismail Israilldjanovich — Yashnobod tumanidagi “Isko” mas‘uliyati cheklangan jamiyati ta‘sischisi, Toshkent shahri

Aslanov Zafariddin Xayrullayevich — Yunusobod tumanidagi “Sofizar” mas‘uliyati cheklangan jamiyati ta‘sischisi, Toshkent shahri

Ashurov Behzod Akbar o‘g‘li — Bektimir tumanidagi “Mirzo Bobur” mas‘uliyati cheklangan jamiyati ta‘sischisi, Toshkent shahri

G‘aybulloyev Nozimjon Abdunayimovich — Chilonzor tumanidagi “Rubber plast pharm” mas‘uliyati cheklangan jamiyati ta‘sischisi, Toshkent shahri

Gulyamov Bexzod Xayotovich — “Oqtepa lavash” fastfud tarmog‘i asoschisi, Toshkent shahri

Djumayev Djasur Xurshidovich — Yunusobod tumanidagi “Uzum technologies” mas‘uliyati cheklangan jamiyati bosh direktori, Toshkent shahri

Jurayev Saydmurod Alixanovich — Yangihayot tumanidagi “Trust communal” boshqaruv servis kompaniyasi rahbari, Toshkent shahri

Islamova Dinara Ulugbekovna — Mirobod tumanidagi “Dodo pizza Tashkent” mas‘uliyati cheklangan jamiyati rahbari, Toshkent shahri

Ishmuxamedov Umidjon Kudratillayevich — Chilonzor tumanidagi “Edu Action” mas‘uliyati cheklangan jamiyati kuzatuv kengashi raisi, Toshkent shahri

Mirzamuxamedov Muxit Zaxidjanovich — Uchtepa tumanidagi “Mavis global” mas‘uliyati cheklangan jamiyati ta‘sischisi, Toshkent shahri

Mirtursunov Zafar Shuxratovich — Yangihayot tumanidagi “Health line” mas‘uliyati cheklangan jamiyati bosh direktori, Toshkent shahri

Mullabayev Muzaffar Shaniyazovich — Mirobod tumanidagi “Asia kandi” mas‘uliyati cheklangan jamiyati rahbari, Toshkent shahri

Nasiroxdjayev Yaxyoxo‘ja Boxodirovich — “Nano” xususiy klinikasi asoschisi, Toshkent shahri

Nuritdinov Aziz Rustamovich — Yunusobod tumanidagi “Eman” mas‘uliyati cheklangan jamiyati ta‘sischisi, Toshkent shahri

Raximov Otabek Alisher o‘g‘li — Olmazor tumanidagi “Ijod-ijod” xususiy korxonasi rahbari, Toshkent shahri

Toshov Rustam Numonjonovich — Mirzo Ulug‘bek tumanidagi “IT-Alliance SWS” yuridik shaxslar uyushmasi rahbari, Toshkent shahri

Tursunov Iskandar Muxammadiyevich — Yangihayot tumanidagi “Al Muamalat Consulting” mas‘uliyati cheklangan jamiyati ta‘sischisi, Toshkent shahri

Shukurov Izzat Surat o‘g‘li — Mirobod tumanidagi “YandexGo UB” mas‘uliyati cheklangan jamiyati ta‘sischisi, Toshkent shahri

Shukurov Izzat Surat o‘g‘li — Mirobod tumanidagi “YandexGo UB” mas‘uliyati cheklangan jamiyati ta‘sischisi, Toshkent shahri

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti	
Toshkent shahri, 2026-yil 13-avgust	



Tabiatga yetkazilgan zararni keyin bartaraf etishdan ko‘ra, oldini olish arzonroq va oqilona qaror. Chiqindini ko‘zdan yiroq qilish bilan muammo yo‘qolmaydi. Uni nazorat qilish, xavfsiz boshqarish va imkoni bor joyda qiymatini qayta tiklash ham tabiatga, ham iqtisodiyotga xizmat qiladi.



yuz.uznews

uz_news



yuz.uz_news

EKOLOGIK XAVFSIZLIK D

IQTISODIY SAMARA SARI MUHIM QADAM



Bolaligimizda eski temir-tersak yig‘ib, topshirish odatiy hol edi. Sotilgan temir qayerga ketishini, undan nima yasalishini bilmasdik, ammo ishlatib bo‘lingan narsaning ham o‘ziga yarasha qiymati bor. Bolalarcha tushunchamizga keng miqyosda qarasak, sanoat chiqindilarining ham qiymati borligini anglaymiz.

Korxonalarda ishlab chiqarish jarayonida hosil bo‘layotgan chiqindilar hajmi katta. Ular orasida qayta ishlash mumkin bo‘lgan materiallar bilan birga inson salomatligi va tabiat uchun xavfli moddalar ham bor. Ularni yillar davomida saqlash muammoni hal qilmaydi. Xavfli qismini zararsizlantirish, foydali tarkibini ajratib olish va iqtisodiy aylanmaga qaytarish zarur.

Davlatimiz rahbarining “Xavfli chiqindilarni boshqarish samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori sohada to‘planib qolgan masalalarni tizimli hal etishga qaratilgani bilan ahamiyatli. Hujjatda xavfli chiqindilarni qayta ishlash darajasini oshirish, ularning noqonuniy muomalasiga yo‘l qo‘ymaslik, davlat nazoratini kuchaytirish, zamonaviy texnologiyalarni joriy etish bo‘yicha aniq vazifalar belgilangan.

Masalaning mohiyati birgina chiqindilarni zararsizlantirish bilan cheklanmaydi. Ishlab chiqarishdan qolgan har bir resursning keyingi taqdirini belgilash, undan inson va tabiatga zarar yetkazmagan holda foyda olish imkoniyatini izlash muhim. Xavfsizlik va iqtisodiy samarani bir nuqtada uyg‘unlashtirish soha oldidagi asosiy vazifalardan biriga aylanmoqda.

Hujjatda tog‘-kon metallurgiyasi, kimyo sanoati, neft-gaz va energetika kabi sohalarda hosil bo‘layotgan xavfli, jumladan, radioaktiv chiqindilarni qayta ishlash darajasini 20 foizga yetkazish, ular ustidan davlat nazoratini ta‘minlash va noqonuniy muomalasining oldini olish bo‘yicha aniq vazifalar belgilangan.

Korxonadan chiqqan xavfli chiqindini “olib ketdik, qayta ishladik” degan birgina gap bilan ish bitmaydi. Uning qayerda hosil bo‘lgani, tarkibida nima borligi, qaysi moddasi qanchalik xavfli ekani aniqlanmas ekan, keyingi qadammni belgilab bo‘lmaydi. Chiqindini saralash, maxsus transportda tashish, xavfsiz saqlash, zararsizlantirish va qayta ishlash — bir-biriga ulangan yagona zanjir. Shu zanjirning bir bo‘g‘ini ishlamasa, muammo yana boshqa joyda paydo bo‘ladi.

Buning yana bir oddiy sababi bor: chiqindi yo‘qolib ketmaydi. Bugun korxona hududining bir chetida uyulib yotgan chiqindi ertaga yer masalasiga, ekologik xavfsizlikka, keyin esa yana qo‘shimcha xarajatga aylanishi mumkin. Ulardan ikkilamchi qurilish materiallari olish imkoniyati paydo bo‘ladi. Bu yondashuvda chiqindigida ishlab chiqarish jarayonining oxirida tashlab qo‘yiladigan qoldiq emas, keyingi ishlab

— Xavfli chiqindilar ko‘p yillardan beri qarovsiz holda yer maydonlarini egallab yotgan edi. Qarorda shu chiqindilarni olib, to‘g‘ri foydalangan holda iqtisodiyotga kiritish bo‘yicha aniq topshiriqlar belgilab berildi. Bundan ko‘zlangan asosiy maqsad — kelajak avlodga va aholiga musaffo ekologiya qoldirish, — deydi Chiqindilarni boshqarish va sirkulyar iqtisodiyotni rivojlantirish agentligi direktori Sharifbek Hasanov.

Sanoatda ham samaradorlik faqat ko‘proq mahsulot ishlab chiqarish bilan o‘lchanmaydi. Xomashyoning qancha qismi mahsulotga aylandi, qancha qismi chiqindi bo‘ldi, chiqindining qanchasini qayta iqtisodiy aylanmaga kiritish mumkin — bu savollar ham korxona faoliyati samaradorligiga daxldor. Xavfli chiqindilarni boshqarish tizimidagi yangi yondashuvning iqtisodiy ahamiyatini ham shu nuqtadan baholash kerak. Agar chiqindining xavfli qismi ajratib olinib, qolgan materialdan qayta foydalanish imkoni bo‘lsa, xarajatning bir qismi iqtisodiy qiymatga aylanishi mumkin. Masalan, xavfli sanoat chiqindilarini qayta ishlash jarayonida zaharli moddalar kimyoviy usulda ajratib olinib, qoladigan tuproq va boshqa materiallar qayta ishlanishi mumkin. Ulardan ikkilamchi qurilish materiallari olish imkoniyati paydo bo‘ladi. Bu yondashuvda chiqindigida ishlab chiqarish jarayonining oxirida tashlab qo‘yiladigan qoldiq emas, keyingi ishlab

chiqarish uchun xomashyoga aylanishi mumkin bo‘lgan resurs sifatida qaraladi.

Radioaktiv chiqindilar bugun ko‘plab davlatlar uchun oson hal bo‘ladigan masala emas. Atom energetikasi, uran qazib olish, tibbiyot va ilmiy tadqiqotlar rivojlangani sari bunday chiqindilarni xavfsiz boshqarishga ehtiyoj ham ortib bormoqda. Shu sababli mamlakatlar radioaktiv chiqindilarni shunchaki saqlab qo‘yish emas, uning butun mavjudlik siklini nazorat qilishga qaratilgan turli yechimlarni ishlab chiqmoqda.

Ayrim davlatlarda qayta ishlash texnologiyalari rivojlantirilib, radioaktiv materiallarning qayta foydalanish imkoniyati bo‘lgan qismlari ajratib olinmoqda. Ayrim joylarda esa chiqindi hosil bo‘lganidan tortib, uni saqlash yoki yakuniy joylashtirishgacha bo‘lgan har bir bosqich raqamli tizimlar orqali kuzatib boriladi.

Qarorga asosan, O‘zbekistonda ham radioaktiv chiqindilar bilan ishlash tizimini shu talablar asosida takomillashtirishga qaratilgan vazifalar belgilangan. Fanlar akademiyasining Yadro fizikasi instituti huzuridagi Respublika radioaktiv chiqindilarni saqlash markazining Chiqindilarni boshqarish va sirkulyar iqtisodiyotni rivojlantirish agentligi tizimiga o‘tkazilishi, xavfli chiqindilarni boshqarish va ularni qayta ishlash direksiyasining tashkil etilishi sohada ilmiy va amaliy yondashuvni kuchaytirish uchun zamin yaratadi. Endi

radioaktiv chiqindilarni saqlash bilan bir qatorda ularni o‘rganish, saralash, qayta ishlash va xavfsiz utilitatsiya qilish imkoniyatlarini kengaytirish masalasi ham kun tartibiga chiqmoqda.

— Bugungacha radioaktiv chiqindilar bo‘yicha ilmiy ishlar deyarli qilinmagan. Bunga asosiy sabab olimlarni moddiy rag‘batlantirish bo‘lmaganidir. Endi qaror natijasida kelgusida radioaktiv chiqindilar bo‘yicha ilmiy tadqiqotlar o‘tkazamiz va bu jarayonga olimlar hamda yoshlarni jalb qilamiz. Bu iqtisodiyotimiz ravnaqi uchun katta turtki bo‘ladi. Sababi bu yangi soha. Ishni yo‘lga qo‘yib olsak, kelajakda radioaktiv chiqindilarni qayta ishlash, saralash, utilitatsiya qilish borasida muammo bo‘lmaydi, — deydi Respublika radioaktiv chiqindilarni saqlash markazi direktori Azizbek Boltaboyev.

Radioaktiv materiallarni saralash, qayta ishlash va zararsizlantirish texnologiyalari tayyor holda kelavermaydi. Ularning bir qismi mahalliy sharoitga moslashtirilishi, ayrimlari esa o‘zimizda ishlab chiqilishi kerak. Bu esa ilmiy tadqiqotlar, yangi mutaxassislar va yoshlarning ushbu sohaga kirib kelishini talab etadi.

— Olim sifatida bu qaror meni g‘ururlantirdi. Xalqaro tadbirlarga tajriba almashgani borganimizda biz rivojlangan davlatlarda radioaktiv chiqindilarni qayta ishlash, saralash, utilitatsiya qilish keng amalga joriy qilinganini ko‘rardik. Bizda ham bu jarayon yo‘lga qo‘yilishini orzu qildirik. Qarorni o‘qib, juda xursand bo‘ldik. Sababi orzularimiz amalga oshadigan bo‘ldi. Boisi, ushbu qarorda bizda ham radioaktiv chiqindilarni saralash, utilitatsiya qilish yo‘lga qo‘yiladi, — deydi Azizbek Boltaboyev.

Aslida, bugun dunyoda ekologik xavfsizlik bilan iqtisodiy manfaatni bir-biridan ajratib qarash tobora qiyinlashmoqda. Chunki chiqindini zararsiz qoldirishning o‘zi ham iqtisodiy zarar. Yer maydonidan samarasiz foydalanish, uni saqlash, monitoring qilish, keyinchalik zararli ta’sirlarni bartaraf etish uchun sarflanadigan mablag‘ — bularning barchasi hisobga olinishi kerak. Shuning uchun chiqindini qayta ishlashga sarflangan mablag‘ ni faqat bugungi xarajat sifatida baholash bir tomonlama yondashuv bo‘ladi.

Ba’zan iqtisodiy samara ishlab topilgan pulda emas, keyin sarflanishi mumkin bo‘lgan mablag‘ni tejashda ko‘rinadi. Ba’zan esa u ikkilamchi xomashyo, yangi mahsulot, yangi texnologiya yoki yangi ish o‘rni shaklida namoyon bo‘ladi. Xavfli chiqindilarni qayta ishlash sohasining rivoji ham ana shunday ko‘p qirrali samara berishi mumkin.

Bu jarayonda nazorat masalasi ham chetda qolmasligi kerak. Xavfli chiqindi qayerda paydo bo‘ldi, qancha miqdorda hosil bo‘ldi, qayerga olib ketildi, kim qabul qildi, qanday usulda qayta ishlendi yoki zararsizlantirildi — bu savollarning har biri aniq javobga ega bo‘lishi lozim. Aks holda, eng zamonaviy texnologiya ham to‘liq samara bermaydi.

Shu bois, 2027-yil 1-yanvarga qadar xavfli chiqindilarning raqamli pasporti hamda birinchi-uchinchi xavfli xatiga mansub chiqindilarning har bir tonnasini hosil bo‘lgan obyektidan boshlab utilitatsiya qilinadigan joygacha real vaqt rejimida monitoring qilinishi imkonini beruvchi axborot tizimini ishlab chiqish belgilangan. Oddiy qilib aytganda, xavfli chiqindining “qayerdan chiqqani va qayerga ketgani” noma’lum bo‘lib qolmasligi kerak.

2026-yil 1-oktabrdan xavfli chiqindilarni hosil qiluvchi tashkilotlarning statistika hisobotlarini yil yakuniga ko‘ra shakllantirib borishi va ularda nazarda tutilgan ko‘rsatkichlarning bajarilishi ustidan nazorat Ekologiya va iqlim o‘zgarishi milliy qo‘mitasining davlat ekologik nazorat inspeksiyasi — “eko-politsiya” tomonidan amalga oshiriladi.

Albatta, sanoat chiqindisi bilan maishiy temir-tersakni bir qatarga qo‘yib bo‘lmaydi. Ayniqsa, xavfli va radioaktiv chiqindilarda har bir qadam hisob-kitob, texnologiya va qat’iy nazoratni talab qiladi. Uni bir joydan ikkinchi joyga ko‘chirish muammoni hal qilmaydi. Chiqindi qayerda paydo bo‘lganidan tortib, qanday saqlangani va oxirida qanday zararsizlantirilishigacha bo‘lgan jarayon nazoratda turishi kerak.

Shu bilan birga, chiqindiga faqat xavf manbai sifatida qarash ham masalaning bir tomonini ko‘rishdir. Uning tarkibida qayta ishlash orqali iqtisodiy aylanmaga qaytarish mumkin bo‘lgan materiallar bo‘lishi mumkin. Buning uchun esa ilm, zamonaviy texnologiya, eng muhimi, ishlab chiqarish madaniyati o‘zgarishi kerak.

Qabul qilingan qarorning ahamiyati ham ana shu yerda namoyon bo‘ladi. Xavfli chiqindilarni hisobga olish, ularning harakatini kuzatish, radioaktiv chiqindilar bilan ishlash bo‘yicha ilmiy salohiyatni kuchaytirish, qayta ishlash va utilitatsiya tizimini rivojlantirishga qaratilgan vazifalar bir-biridan alohida choralar emas. Ular xavfli chiqindi bilan ishlashning yagona tizimini shakllantirishga xizmat qiladi.

Bu tizim to‘g‘ri ishlasa, natija faqat toza hudud yoki kamaygan chiqindi bilan o‘lchanmaydi. Kamroq xomashyo isrof bo‘ladi, ikkilamchi resurs paydo bo‘ladi, korxonaning keyingi ekologik xarajatlari qisqaradi, yangi texnologiya va mutaxassislar qadriyatini tug‘iladi. Ya’ni ekologik vazifa iqtisodiy jarayonning o‘ziga kirib boradi.

Tabiatga yetkazilgan zararni keyin bartaraf etishdan ko‘ra, oldini olish arzonroq va oqilona qaror. Chiqindini ko‘zdan yiroq qilish bilan muammo yo‘qolmaydi. Uni nazorat qilish, xavfsiz boshqarish va imkoni bor joyda qiymatini qayta tiklash ham tabiatga, ham iqtisodiyotga xizmat qiladi.

Shu bois, bugun chiqindini kamaytirish bilan cheklanib bo‘lmaydi. Gap unga munosabatni o‘zgartirishda. Kecha chiqindi deb chetga surilgan narsaga bugun resurs sifatida qarash, xavfli qismini esa mas’uliyat bilan boshqarish kerak. Ana shu qarash qarorda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga, ekologik xavfsizlik iqtisodiy samaraning raqobatchisi emas, uning yangi tayanchiga aylanadi.

Sardor TOLLIBOYEV,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri



Tahlil

Yurtimizda davlat mulki obyektlarini xususiy lashtirish jarayonini jadallashtirish, iqtisodiyotda davlat ishtirokini qisqartirish hamda xususiy sektor rolini kengaytirish borasida izchil islohotlar amalga oshirilmoqda. Ushbu yo‘nalishdagi chora-tadbirlar bozor mexanizmlarni yanada rivojlantirish, raqobat muhitini kuchaytirish va investitsiyaviy jozibadorlikni oshirishga xizmat qilyapti.

“O‘zbekiston — 2030” strategiyasiga muvofiq, 2030-yilgacha nodavlat sektor ulushini 85 foizga yetkazish va davlat ishtirokidagi korxonalarni 6 barobar qisqartirish, yirik korxonalar va tijorat banklarini transformatsiya qilish, ular tarkibidagi raqobat muhiti shakllangan sohalardagi korxonalar sonini ko‘paytirish hamda xususiy lashtirish jarayonlarini yanada jadallashtirish bo‘yicha tegishli vazifalar belgilab berilgan.

Rivojlangan mamlakatlar tajribasiga ko‘ra, xususiy sektor ulushi qancha ko‘p bo‘lsa, iqtisodiyot shuncha barqaror rivojlanadi va jamiyat shuncha faol bo‘ladi. Masalan, Janubiy Koreya yoki Singapurda xususiy sektor davlat islohotlarining yetakchi kuchiga aylangan.

2017-yildan O‘zbekiston taraqqiyotining yangi davri boshlandi. Jumladan, 2017-2025-yillar davomida mamlakatda 7753 ta davlat korxona va obyekti xususiy lashtirildi.

Davlatimiz rahbarining 2020-yil 12-maydagi “2020-2025-yillarga mo‘ljallangan O‘zbekiston

Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to‘g‘risida”gi farmonida mamlakatimiz bank tizimida davlat ulushini bosqichma-bosqich kamaytirish, moliya bozorida teng raqobat sharoitlarini yaratish, kreditlashni faqat bozor shartlari asosida amalga oshirish, banklarning davlat resurslariga qaramligini pasaytirish, xizmat ko‘rsatishni modernizatsiya qilish, sohada samarali infratuzilma yaratish va avtomatlashtirish, shuningdek, ular faoliyatiga xos bo‘lmagan funksiyalarni bekor qilish orqali samaradorligini oshirish vazifalari belgilab berildi. Ushbu farmonga muvofiq, “Ipotekabank”, “Asakabank”, “Aloqabank”, “O‘zbek sanoat-qurilishbank”, “Qishloq-qurilishbank” va “Turonbank”ni xususiy lashtirish bo‘yicha qaror qabul qilindi.

Mamlakatda 2023-yildan 40 ta yirik korxona va banklardagi davlat ulushi xalqchil IPO orqali sotilishi belgilangan. “Xalqchil IPO” — xalq pullarini mamlakat iqtisodiyotini o‘stirishga jalb qilish usulidir. IPO davomida to‘plangan mablag‘lar kompaniyalarni yanada rivojlantirish, aktivlarni o‘zlashtirish, ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish va kengaytirishga yo‘naltiriladi, fond bozorini faollashtirishga yordam beradi. Qisqacha aytganda, “Xalqchil IPO” yuz minglab mulkdorlar paydo bo‘lishiga xizmat qiladi.

IPO o‘tkazish — xususiy lashtirish usullaridan biri hisoblanadi. 2026-yil may oyida O‘zbekiston iqtisodiyoti tarixida ilk bor milliy aksiyalar xalqaro ommaviy savdoga chiqarildi. O‘zbekiston Milliy investitsiya jamg‘armasi “Franklin Templeton” kompaniyasi bilan hamkorlikda bir vaqtning o‘zida London va Toshkent fond birjalarda

“IPO” jarayonini boshladi. O‘zbekiston Milliy investitsiya jamg‘armasining 2 milliard 400 million dollarlik davlat aktivlari har kuni yirik bitimlar tuziladigan London fond birjasida eng salmoqli aksiyaga aylandi. Ushbu voqea 2021-yildan buyon birja tarixidagi eng yirik davlat aktividir. Bu nafaqat O‘zbekistonning ilk xalqaro IPOsi, balki yuqori o‘shish sur‘atiga ega iqtisodiyotga ko‘proq global investitsiyalarni oqimini jalb qilish uchun darvozalarning ochilishi ham.

London fond birjasiga davlat aktivlarining yaxlit bir jamg‘arma orqali taqdim etilishi investorlar uchun katta quylaylikdir. Negaki jilish’ama portfelida “Uzbekistan Airways”, “O‘zbektelekom”, “O‘zbekgidroenergo”, “Hududgazta’minot”, “Milliy elektr tarmoqlari”, “O‘zsanoatqurilishbank” kabi yirik kompaniyalarning aktivlari bor. Bu investorlar uchun O‘zbekiston iqtisodiyotining strategik sektoriga jamlangan portfelni sotib olish imkonini beradi.

Endi global investorlar yurtimizga faqat xomashyo manbasi yoki iste’mol bozori sifatida emas, balki uzoq muddatli iqtisodiy hamkor sifatida qaramoqda. IPOga global miqyosda qiziqish darajasida 2,8 milliard dollardan boshlandi va talab taklifdan to‘rt baravardan ziyod oshdi. Bu xalqaro investorlarning O‘zbekiston iqtisodiy o‘shishida faol qatnashishiga katta qiziqish bildirayotganini ko‘rsatadi.

Umuman olganda, xususiy lashtirishning o‘tgan bosqichlarida respublika iqtisodiyotining barcha tarmoqlari va sohalarda xususiy mulkchilikka asoslangan yangi toifadagi korxonalar shakllandi va faoliyat yuritib boshladi.

Iqtisodiyotda nodavlat sektorning shakllanishida mulkni davlat tasarrufidan chiqarish va

XUSUSIY LASHTIRISH TENDENSIYASI

Davlat va xalq farovonligi uchun qanday xizmat qiladi?



xususiy lashtirish jarayonlarining ta’siri ahamiyatli bo‘ldi. Bu islohotlar o‘zining ijobiy natijalarini yil sayin iqtisodiyotning barqaror o‘shishida ham ko‘rsatmoqda. Masalan, keyingi sakkiz yilda yalpi ichki mahsulot 2 barobar ko‘payib, 145 milliard dollardan oshdi.

2026-yilda mamlakatda 6,6 foiz iqtisodiy o‘shish ta’minlanib, yalpi ichki mahsulot hajmi 167 milliard dollarga yetishi, 2030-yilga borib esa 240 milliard dollardan oshishi ko‘zda tutilgan.

Mulkchilik munosabatlarni takomillashtirishning asosiy vazifasi davlat mulkini mexanik tarzda qisqartirish emas, balki uning samaradorligini oshirish, davlat aktivlarini

korporativ boshqaruv asosida isloh qilish, xususiy lashtirish jarayonlarining shaffofligini ta’minlash, xususiy mulk daxlsizligini kuchaytirish va nodavlat sektor faoliyatini ekologik hamda ijtimoiy mas’uliyat mezonlari bilan uyg‘unlashtirishdan iborat.

Prezidentimiz 2026-yil 17-iyun kuni beshinchi Toshkent xalqaro investitsiya forumidagi nutqida bu yil xususiy lashtirish doirasida 6 milliard dollarlik ko‘chmas mulk va korxonalardagi davlat ulushi hamda yer uchastkalari auksionga chiqarilishini e’lon qildi.

Shuni ham aytib o‘tish lozimki, agar 2022-yilda ilk bor o‘tkazilgan forumga

123 milliard dollarlik investitsiya kiritildi. Bu fakt ham investitsiya forumining ahamiyati ortib borayotganini ko‘rsatadi.

Xulosa qilib aytganda, mamlakatimizda mulkiy munosabatlarni yanada takomillashtirish orqali barqaror iqtisodiy o‘shishni ta’minlash mumkin. Chunki kambag‘allikni qisqartirib, xalqimizning hayot darajasi hamda farovonligini yanada oshirishga xalqaro tajribalarni muvaffaqiyatli qo‘llash orqaligina erishiladi.

Turg‘un ZIYAYEV,
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti faxriy doktori

“IKKINCHI IMKON” ISHONCH VA UMID DEMAKDIR!



Lola SAODATOVA,
Ombudsmanning Qashqadaryo
viloyatidagi vakili

Ombudsman faoliyatida ham inson huquqlarini aynan shunday yaxlit tushunish muhim o‘rin tutadi. Jazoni ijro etish muassasalarida saqlanayotgan shaxslarning huquqlari ta‘minlanishi, ularga qonunchilikda belgilangan munosabatda bo‘linishi, sharoitlarning o‘rganilishi va murojaatlariga e‘tibor qaratilishi inson qadriini ta‘minlash borasidagi umumiy siyosatning ajralmas qismidir. Chunki inson huquqlariga faqat erkin hayot kechirayotgan fuqarolarga taalluqli tushuncha sifatida qaralishi mumkin emas. Ozodlikdan mahrum etilgan shaxs ham qonunda nazarda tutilgan huquqlarga ega va ularning ta‘minlanishi huquqiy davlatning muhim mezonlaridan.

Faoliyatimiz davomida jazoni ijro etish muassasalarida bo‘lib, u yerdagi yoshlar bilan suhbatlashish asosida kechinmalari va kelajak haqidagi so‘zlarini ko‘p tinglaganmiz. Panjara ortidagi har bir taqdirning o‘z tarixi bor. Ularning orasida qilgan ishidan chin dildan pushaymon bo‘lgan, ortda qolgan vaqtini o‘ylab iztirob chekayotgan, ozodlikka chiqqach, hayotini mutlaqo boshqa yo‘ldan davom ettirishni istayotgan yoshlar ko‘p. Bunday insonlarning tuzalishga intilishini ko‘rish, ularga qonun doirasida zarur sharoit yaratish, o‘z navbatida, jamiyat manfaatlariga ham xizmat qiladi.

Davlatimizning yoshlarga oid siyosatida ana shu yondashuv izchil namoyon bo‘lmoqda. Xususan, joriy yil 24-fevral kuni Ko‘ksaroy qarorgohida Prezidentimizning yoshlar bilan ularning tashabbuslarini qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha qo‘shimcha imkoniyatlar yaratishga bag‘ishlangan muloqoti bo‘lib o‘tgan edi. Ushbu uchrashuvni viloyat studiyasida turib kuzatar ekanman, yoshlar manfaatiga qaratilgan har bir yangi tashabbusni katta qiziqish bilan tingladim. Muloqot davomida ta‘lim, bandlik, tashabbuskorlik va yoshlarning o‘z salohiyatini ro‘yobga chiqarishi bilan bog‘liq masalalar



qatorida taqdiri jazoni ijro etish muassasalarini bilan bog‘langan yoshlarning ertangi kuni ham e‘tibordan chetda qolmagani alohida taassurot qoldirdi.

Aynan shu uchrashuvda davlatimiz rahbari jazoni o‘rnatgan yoshlarni ijtimoiy hayotga moslashtirishga qaratilgan “Ikkinchi imkon” loyihasini e‘lon qildi. Menimcha, ushbu tashabbusning mohiyatini uning nomining o‘zi juda aniq ifodalaydi. Ya‘ni ikkinchi imkon sodir etilganidan oqlash emas, aksincha, inson o‘z qilmishidan tegishli xulosa chiqarib, hayotini tuzatishga intilayotgan bo‘lsa, uning oldidagi barcha eshiklarni umrbod butkul yopib qo‘ymaslik degandir.

Davlatimiz rahbari ilgari surgan tashabbus qisqa muddatda aniq huquqiy asos bilan mustahkamlandi. Xususan, shu yil 27-mart kuni Prezidentimizning “Jazoni ijro etish muassasalaridagi yoshlarni zamonaviy kasblarga o‘qitishga oid chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarori qabul qilindi. Mazkur hujjatda jazoni o‘rnatgan yoshlarni zamonaviy bilim va kasblarga o‘qitishga qaratilgan “Ikkinchi imkon” ijtimoiy reabilitatsiya milliy loyihasini amalga oshirish tartibi belgilandi.

Ushbu qarorning mohiyati shundaki, jazoni o‘tab, ozodlikka chiqqan yoshning qo‘lida mehnat bozorida o‘z o‘rnini topishiga xizmat qiladigan bilim va kasbiy ko‘nikmalar ham bo‘lishi kerak. Shunga muvofiq, jazoni ijro etish muassasalarida saqlanayotgan 18-30 yoshli mahkumlar uchun 8-12 oylik intensiv o‘quv dasturlari yo‘lga qo‘yildi. Mazkur dasturlar orqali ularga bugungi raqamli iqtisodiyot sharoitida talab yuqori bo‘lgan zamonaviy kasblarni egallash imkoniyati yaratilmoqda.

Loyiha doirasida yoshlarning xorijiy tillarni o‘rganishiga ham alohida e‘tibor qaratilgan. Xususan, ular qiziqishi va ehtiyojidan kelib chiqqan holda ingliz, rus hamda xitoy tillarini o‘rganish imkoniyatiga ega bo‘lmoqda. Muhimi, o‘quv kurslarini muvaffaqiyatli tamomlagan yoshlarga elektron shakldagi sertifikatlar berilishi nazarda tutilgan. Bu esa ular egallagan bilim va malakaning rasmiy tasdig‘i bo‘lib, keyinchalik ishga joylashish jarayonida qo‘l keladi.

2016-yilda oliy ta‘limga qamrov taxminan 9 foiz edi. Bugun u 40 foizdan yuqori darajaga yetdi. Bir paytlar oliy ma‘lumot olish kam sonli yoshlar uchun nasib qiladigan imkoniyat hisoblangan bo‘lsa, bugun u millionlab oilalar hayotiga kirib kelgan real ijtimoiy imkoniyatga aylanmoqda.



Nuqtayi nazar

Mamlakatimizda istiqlolning 35 yilligi “Yagona Vatan, yagona xalq bo‘lib, yangi hayot va kelajak yaratamiz!” degan bosh g‘oya asosida nishonlanmoqda. Bu shunchaki bayram shiori emas, unda xalqimizning asrlar davomida qalbida asrab kelgan ozodlik orzusi, jadid bobolarimizning ma‘rifat va taraqqiyotga intilishi, mustaqillik yillarida bosib o‘tilgan milliy tiklanish yo‘li va yurtimizda kechayotgan milliy yuksalish jarayoni uzviy tutashadi. Vatan, xalq, yangi hayot va kelajak tushunchalarining bitta g‘oyada uyg‘unlashishi esa yangi taraqqiyot bosqichi falsafasini ifoda etadi.



YANGI O‘ZBEKISTON — MA’RIFATLI JAMIYAT



Azizbek AMONOV,
“Ma’rifat” targ‘ibotchilar
jamiyati a‘zosi

Jadidlar orzusi

Mustaqillikning qadriini anglash uchun bir asr avvalgi Turkistonni ko‘z oldimizga keltirishning o‘zi kifoya. O‘sha davrda millat taqdiriga befarq bo‘lmagan jadid bobolarimiz qolqolqning asosiy sababini ilm va ma‘rifatdan uzoqlashishda ko‘rdi. Shuning uchun ular qo‘liga kitob oldi, maktab ochdi, darsliklar yozdi, gazeta va jurnallar nashr ettirdi. Shuningdek, teatr tashkil qildi, xalqni dunyodagi yangiliklardan xabardor etish, fikrlash, o‘zligini anglash, kelajak haqida o‘ylashga undadi. Ular ozodlikni ma‘rifatdan, mustaqillikni esa bilimli millatdan ayro tasavvur qilmagan edi. Bugun, oradan bir asrdan ziyod vaqt o‘tib, jadidlarning ana shu buyuk orzusi mutlaqo yangi tarixiy sharoitda, yangi imkoniyat va ulkan ko‘lamda O‘zbekiston taraqqiyotining ma‘naviy mazmuniga aylanmoqda.

Bugungi yangi O‘zbekiston bilan jadidlar g‘oyasi o‘rtasidagi eng kuchli ma‘naviy bog‘liqlik ta‘limga munosabatda namoyon bo‘ladi. Keyingi yillarda maktabgacha ta‘lim tamog‘ining keskin kengayishi, yangi maktablar, Prezident va ijod maktablari, ixtisoslashtirilgan ta‘lim muassasalari, xususiy va xorijiy universitetlar ochilishi, oliy ta‘lim qamrovining bir necha barobar oshishi — bularning barchasi bir asr avval jadidlar ilgari surgan “ta‘lim orqali taraqqiyot” g‘oyasining bugun davlat siyosati miqyosida amalga oshirilayotganidan dalolat beradi.

2016-yilda oliy ta‘limga qamrov taxminan 9 foiz edi. Bugun u 40 foizdan yuqori darajaga yetdi. Bir paytlar oliy ma‘lumot olish kam sonli yoshlar uchun nasib qiladigan imkoniyat hisoblangan bo‘lsa, bugun u millionlab oilalar hayotiga kirib kelgan real ijtimoiy imkoniyatga aylanmoqda.

Ammo bugungi ma‘rifat jadidlar davrining oddiy takrori emas. Agar ular o‘z davrida matematika, geografiya, tabiiy fanlar va xorijiy tillarni zamonaviy maktab dasturiga olib kirish uchun kurashgan bo‘lsa, bugun oldimiza turgan vazifa yoshlarni sun‘iy intellekt, dasturlash, robototexnika, biotexnologiya, zamonaviy muhandislik, raqamli iqtisodiyot va global innovatsiyalar bilan qurollantirishdir.

Yangi O‘zbekiston taraqqiyotining mazmuni davlat va jamiyatni inson manfaatlariga yanada yaqinlashtirish, iqtisodiyot va ijtimoiy sohalarini ochildi, imkoniyatlarni kengaytirish, fuqarolarni islohotlarning kuzatuvchisi emas, bevosita ishtirokchisiga aylantirish va inson kapitalini taraqqiyotning asosiy kuchiga ko‘tarish bilan belgilanmoqda.



Hududlar kesimidagi o‘zgarishlar yangi O‘zbekiston islohotlarining odamlar kundalik hayotiga qanchalik yaqinlashganini ko‘rsatadi. Masalan, Buxoro viloyatida 2020-2025-yillarda iqtisodiyot 1,7 barobar, aholi daromadi qariyb 2,1 barobar o‘ydi. Ihsizlik darajasi 10,6 foizdan 4,6 foizga, kambag‘allik 14,7 foizdan 3,7 foizga qisqardi. 17 ming 916 xonadondan iborat 508 ta ko‘p qavatli uy-joy barpo etildi. Qariyb 4,7 ming kilometr yo‘l ta‘mirlandi, 127 ta ko‘prikkada qurilish va rekonstruksiya ishlari bajarildi. Markazlashgan ichimlik suv bilan ta‘minlash darajasi 54,8 foizdan 78 foizga oshdi. Maktabgacha ta‘lim qamrovi 62,5 foizdan 91,8 foizga ko‘tarildi. Oliy ta‘lim muassasalari soni 5 tadan 10 taga, talabalar soni 44 mingdan 105 mingga yetdi.

Yana bir katta o‘zgarishni kambag‘allik masalasiga munosabatda kuzatish mumkin. Ilgari ushbu tushuncha rasmiy siyosiy va ijtimoiy lug‘atda deyarli ochiq qo‘llanmagan. Keyingi yillarda muammo tan olindi, uni qisqartirish davlat siyosatining alohida yo‘nalishiga aylandi. Aholini kasbga o‘rgatish, band qilish, tadbirkorlikka jalb etish, kredit va subsidiyalarni berish, “mahallabay” ishlash tizimi, ijtimoiy reyestrler va manzilli yordam mexanizmlari shakllandi. 2025-yil yakunlari bo‘yicha millionlab aholining daromadi oshirilib, qariyb 1,5 million fuqaro kambag‘allikdan chiqarilgan ham mazkur siyosatning amaliy natijasidan darak.

Inson kapitalidan Uchinchi Renessansga

Ma‘rifatli jamiyat deganda nima tushuniladi? Uni faqat diplomli odamlar soni, universitetlar yoki kitoblar miqdori bilan o‘lchash mumkin emas. Diplomli, ammo mustaqil fikrlamaydigan inson bo‘lishi mumkin. Katta ma‘lumotga ega, ammo jamiyat oldida mas‘uliyatni his qilmaydigan kishi ham uchraydi. Shuning uchun ma‘rifatli jamiyat bilimli, fikrlaydigan, milliy o‘zligini anglagan, qonunni hurmat qiladigan, boshqalarning haq-huquqiga ehtirom bilan qaraydigan, mustaqil qaror qabul qiladigan va vatan taqdiriga daxldor insonlar jamiyatidir.

Bunday jamiyatda bilim eng katta qadriyatlardan biriga aylanadi. Ustozning obro‘si baland bo‘ladi, olimning mehnati qadrlanadi, kitob o‘qish odat emas, madaniyat sifatida shakllanadi, savol berish ayb emas, tafakkur belgisi hisoblanadi. Yosh avlodga tayyor ma‘lumotlarni yodlatish bilan cheklanib qolmaydi, balki haqiqatni izlash, dalillarni taqqoslash, mustaqil xulosa chiqarish, fikrini asoslash va uni himoya qila bilish o‘rgatiladi.

Shu bois, Uchinchi Renessansni faqat ilmiy laboratoriyalar, texnoparklar yoki zamonaviy binolar orqali barpo etib bo‘lmaydi. Renessans jamiyatda ilm qadriyatga aylanganida yuzaga keladi.

Bu jarayonda Islom sivilizatsiyasi markazi, Imom Buxoriy, Imom Termiziy va boshqa buyuk allomalarni merosini o‘rganishga qaratilgan ilmiy-ma‘rifiy markazlar, muzeylar, kutubxonalar va ilmiy maktablarning ahamiyati katta. Bular tarixiy merosni faqat namoyish qilish uchun emas, balki uni ilmiy o‘rganish, dunyoga taqdim etish va yangi avlod uchun intellektual resursga aylantirishga xizmat qilishi kerak. Chunki Birinchi va Ikkinchi Renessans davrida xalqimizning buyuk allomalari dunyo ilm-fani va



2026-yil 14-avgust, 164-son

madaniyati rivojiga qanday ulkan hissa qo‘shgan bo‘lsa, bugungi avlod oldida ham yangi ilmiy va texnologik yuksalishni yaratish mas‘uliyati turibdi.

Yana bir muhim vazifa — jamiyatni mafkuraviy va axborot tahdidlaridan himoya qilish. Bugun inson ongi uchun kurash davlat chegaralarini tan olmaydi. Axborot xuruji, feyk xabar, manipulyatsiya, radikalizm, ekstremizm, milliy qadriyatlarni kamsitish, “ommaviy madaniyat”ning zararli ko‘rinishlari, loqaydlilik va befarqlik jamiyatning ma‘naviy barqarorligiga jiddiy xavf solishi mumkin. Ularga qarshi eng kuchli qalqon esa ma‘rifatdir.

Shuning uchun mamlakatimizda ma‘rifat masalasi madaniy siyosat doirasidan chiqib, milliy xavfsizlik darajasidagi masalaga aylanmoqda. Taraqqiyot va ma‘naviyatni bir-biriga qarshi qo‘yish mumkin emas. Ular misoli qushning ikki qanotidir. Bir qanot bilan parvoz qilib bo‘lmaydi. Bizga zamonaviy texnologiya kerak, ammo milliy o‘zlikni yo‘qotish hisobiga emas. Bizga global bilim kerak, biroq ona tili va milliy madaniyatimizni mensimaslik evaziga emas. Bizga sun‘iy intellekt kerak, lekin insoniylik, mehr-oqibat va axloqiy mas‘uliyatni yo‘qotmasdan. Bizga iqtisodiy boylik kerak, ammo ma‘naviy qashshoqlik hisobiga emas. Shuning uchun ma‘rifatli jamiyatning zamonaviy formulasi chuqur milliy ildiz, zamonaviy bilim, erkin tafakkur, yuksak axloqiy mas‘uliyat va fuqarolik daxldorligining uyg‘unligidan iborat bo‘lishi lozim.

Buyuk kelajak yaratish falsafasi

Dunyoning turli mintaqalarida urushlar, geosiyosiy ziddiyatlar, iqtisodiy raqobat, ekologik muammolar, axborot xurujlari va ijtimoiy parchalanish xavfi kuchayib bormoqda. Shunday bir davrda yurtimizda odamlarning tinch hayot kechirib, bunyodkorlik bilan band ekani, ta‘lim, tadbirkorlik va sayohat haqida orzu qilayotgani mustaqillikning eng katta ne‘matlaridan.

O‘zbekistonning boyligi ham shundaki, bu yerda 130 dan ortiq millat va elat, din va konfessiya vakillari, turli urf-odat va madaniyat sohiblari yagona fuqarolik taqdiri atrofida yashab kelmoqda. Millatlar va madaniyatlar xilma-xil, lekin Vatan bitta, urf-odatlar turlicha, lekin tinchlik va kelajak umumiy. Shuning uchun ma‘rifatli jamiyat millatlararo totuvlik va diniy bag‘rikenliksiz to‘liq shakllana olmaydi. Ma‘rifatli inson boshqa millat yoki e‘tiqod vakilini umumiy vatanning teng huquqli fuqarosi sifatida qabul qiladi.

Bosh g‘oyadagi “yangi hayot” tushunchasi ham juda keng mazmunga ega. U, avvalo, inson munosabatlarning yangilanishi, davlat va fuqaro o‘rtasidagi mulqotning o‘zgarishi, odamning o‘z huquq va burchlarini anglashi, yoshlar orzu va maqsadlarining kengayishi, ota-onaning farzandi ta‘limiga munosabati, jamiyatda ilm, kitob, mehnat va tashabbusga bo‘lgan ehtiromning oshishidir.

Eng katta ma‘no esa “kelajak yaratamiz” degan jumlada mujassam. Chunki kelajak kutilmaydi, aynan yaratiladi. Kelajakni ozod va dono xalq bunyod etadi. Shunday ekan “Vatan men uchun nima qildi?” degan savol bilan “Men Vatanim uchun nima qilayman?” degan savol ham har birimizning hayot mezonimizga aylanishi kerak. Zotan, mustaqilliksiz milliy taraqqiyot bo‘lmas edi, milliy o‘zliksiz ma‘rifatli jamiyat qurilmaydi, ma‘rifatli jamiyatsiz esa Uchinchi Renessansni tasavvur qilish qiyin.

Shu bois, mustaqilligimizning 35 yilligi faqat bosib o‘tilgan yo‘l bilan faxrlanish sanasi emas. Bu sana bizdan yana bir muhim savolga javob talab qiladi: kelajak avlodga qanday O‘zbekiston qoldiramiz?

Biz farzandlarimizga shunday vatan qoldirishimiz kerakki, unda insonning eng katta boyligi uning bilimi, eng katta tayanchi kindik qoni to‘kilgan zamin, eng katta mas‘uliyat xalq oldidagi burchi, eng buyuk maqsadi esa kelajak yaratish bo‘lsin. Ana shunda yangi O‘zbekiston haqiqatan ma‘rifatli jamiyatga aylanadi. Ana shunda Uchinchi Renessans balandparvoz shior emas, tarixiy voqealik bo‘ladi. Ana shunda jadid bobolarimiz bir asr avval orzu qilgan ozod, bilimli, ma‘rifatli va taraqqiy etgan millatning yangi tarixiy qiyofasi namoyon bo‘ladi.

Zotan, barchamizni birlashtiradigan buyuk g‘oya bitta: **yagona Vatan, yagona xalq bo‘lib, yangi hayot va kelajak yaratamiz!**

